

O'RTA OSIYO XALQLARI  
MADANIYATIDA OT:

# TARIXIY MANBALAR VA TIPOLOGIK TALQIN



**Ikromov Nozim  
Muzrapovich,**  
Termiz davlat  
universiteti  
O'zbekiston tarixi  
va manbashunoslik  
kafedrasida dotsenti,  
tarix fanlari bo'yicha  
falsafa doktori (PhD)



**Fayziyev  
Abdusamad  
Abduxoliq o'g'li,**  
Termiz davlat  
universiteti  
O'zbekiston tarixi  
va manbashunoslik  
kafedrasida o'qituvchisi



## **Annotatsiya.**

*Mazkur maqolada Oʻrta Osiyoda qadimdan mavjud boʻlgan ot turlarining shakllanishi, ularning biologik va morfologik xususiyatlariga koʻra tasnifi hamda tarixiy manbalarda aks etishi tahlil qilinadi. Qadimgi yozma yodgorliklar, arxeologik topilmalar va numizmatik materiallar asosida ot yetishtirish madaniyati va uning ijtimoiy-harbiy hayotdagi oʻrni yoritilgan. Tadqiqotda xitoy solnomalari, yunon-rim, arab va fors manbalari solishtirilib oʻrganilgan. Natijada qadimiy ot turlari mintaqqa iqtisodiyoti, madaniyati va siyosiy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etgani asoslab berilgan.*

## **Kalit soʻzlar.**

*Oʻrta Osiyo, ot turlari, tarixiy manbalar, morfologik tasnif, xalq eʼtiqodlari, otlarning xulqiy tiplari, marosimiy timsollar.*

## **Аннотация.**

*В данной статье анализируются вопросы формирования древних пород лошадей в Средней Азии, их*

*классификация по биологическим и морфологическим признакам, а также их отражение в исторических источниках. На основе письменных памятников, археологических находок и нумизматических материалов раскрывается культура коневодства и роль лошадей в общественно-военной жизни региона. В исследовании проведён сравнительный анализ китайских летописей, греко-римских, арабских и персидских источников. В результате обосновано, что древние породы лошадей играли важную роль в экономическом, культурном и политическом развитии региона.*

## **Ключевые слова:**

*Средняя Азия, породы лошадей, исторические источники, морфологическая классификация, народные верования, поведенческие типы лошадей, ритуальные символы.*



## Abstract.

*This article analyzes the formation of ancient horse breeds in Central Asia, their classification based on biological and morphological characteristics, and their representation in historical sources. Based on written monuments, archaeological findings, and numismatic materials, the culture of horse breeding and the role of horses in the socio-military life of the region are examined. The study includes a comparative analysis of Chinese chronicles, Greco-Roman, Arab, and Persian sources. The results demonstrate that ancient horse breeds played a significant role in the economic, cultural, and political development of the region.*

## Keywords:

*Central Asia, horse breeds, historical sources, morphological classification, folk beliefs, behavioral types of horses, ritual symbols.*

## KIRISH.

Oʻrta Osiyo qadimdan buyon insoniyat sivilizatsiyasining yirik markazlaridan biri boʻlib, bu hududda dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq bilan bir qatorda chorvachilik, xususan, ot yetishtirish va uni turli maqsadlarda qoʻllash madaniyati yuqori darajada rivojlangan. Ot qadim zamonlardan boshlab nafaqat harbiy va xoʻjalik ehtiyojlarida, balki ijtimoiy, diniy va marosimiy hayotda ham muhim oʻrin tutgan. Ayniqsa, Oʻrta Osiyoda yashagan qadimiy xalqlar — soʻgʻdiyalar, baqtriyaliklar, sak-massagetlar va keyinchalik kushonlar davrida otning tasviriy sanʼatda, yodgorliklarda va yozma manbalarda keng ifodalanganini kuzatish mumkin. Tarixiy va arxeologik manbalarda ot turlarining xilma-xilligi, ularning tashqi belgilar, rang, vazifa va ijtimoiy maqom bilan bogʻliq tasnifi haqida qimmatli maʼlumotlar uchraydi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI.

Oʻrta Osiyoda ot turlarining shakllanishi, ularning tarixiy va madaniy ahamiyati masalalari bir qator mahalliy va xorijiy olimlarning tadqiqotlarida qisman yoritilgan. Ilmiy nuqtayi nazardan bu masalaga dastlabki eʼtibor Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino va Mahmud Qoshgʻariy kabi mahalliy olimlar tomonidan qaratilgan. Ular oʻz asarlarida hayvonot dunyosini turli tiplarga boʻlgan, ularning xususiyatlari, yashash joyi va

feʼl-atvoriga koʻra farqlab tahlil qilganlar<sup>1</sup>.

Shuningdek, mahalliy va xorijiy tadqiqotchilardan Oʻ. Mavlonov, A. Tashbayev, S. N. Kenjayev, M. A. Rahmatov, A. Azizov, Jon Mak-Lennan, B. X. Karmisheva, Debora Kantrel va K. Villekes kabi olimlar oʻz tadqiqotlarida Oʻrta Osiyo hududida yetishtirilgan ot zotlari va ularning turli mezonlar asosida turlarga boʻlinishiga oid qimmatli maʼlumotlar keltirib oʻtgan.

## METODLAR.

Mazkur tadqiqotda tarixiy-tahliliy, taqqoslama, arxeologik manbashunoslik, ikonografik tahlil va morfologik tipologiya usullaridan foydalanildi. Mazkur metodlar yordamida Oʻrta Osiyo hududida mavjud boʻlgan qadimiy ot turlarining tarixiy manbalardagi ifodasi kompleks yondashuv asosida oʻrganildi.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Ot insoniyat tarixida eng qadimiy va eng muhim hayvonlardan biri boʻlib, u ijtimoiy-iqtisodiy hayot, harbiy ishlar, diplomatik munosabatlar hamda madaniy-maʼnaviy qadriyatlarining ajralmas qismi hisoblanadi. Shu bois ot turlarining tarixiy manbalarda qanday aks etgani, ularning shakl, zot va maqsad jihatidan tasnifi nafaqat zoologik, balki madaniy-antropologik, tarixiy va sivilizatsion tadqiqotlar uchun ham nihoyatda muhimdir. Tarixiy manbalarda ot turlarining tilga olinishi jamiyat taraqqiyotining muhim koʻrsatkichi hisoblanadi. Chunki otning mavjudligi harbiy kuch, iqtisodiy taraqqiyot darajasi, diplomatik nufuz, madaniy boylik darajasini koʻrsatadi. Masalan, Fargʻona vodiysi otlari Xitoy manbalarida “samoviy otlar”<sup>2</sup> deb atalgan boʻlsa, bu Oʻrta Osiyo davlatlarining oʻsha davrdagi siyosiy mavqecini va ot zoti orqali iqtisodiy taʼsirini tasdiqlaydi.

Ot turlarining narxi, almashuvdagi oʻrni va diplomatik sovgʻa sifatidagi roli haqida yozma manbalarda keltirilgan maʼlumotlar qadimiy iqtisodiy tizimni oʻrganishda muhim manba hisoblanadi. Masalan, Xitoy yilnomalarida Fargʻona otlari uchun minglab oʻram ipak va oltin buyumlar taklif etilgani yozilgan — bu Buyuk Ipak yoʻli iqtisodiyotining shakllanishida ot savdosining markaziy oʻrin tutganini koʻrsatadi.

Ot turlarini tabiiy, morfologik hamda ramziy belgilariga koʻra tasniflash insoniyat tafakkurida qadimdan mavjud boʻlgan ilmiy-amaliy faoliyat yoʻnalishlaridan biridir. Hayvonot olamini, jumladan, otlarni ularning xususiyatlari, yashash muhiti va ijtimoiy ahamiyatiga qarab ajratish jarayoni Sharq falsafasi, tabiatshunosligi va xalq etnografiyasida muhim oʻrin egallaydi. Bu boradagi dastlabki ilmiy qarashlar Abu Nasr Farobiy asarlarida kuzatiladi. U oʻzining falsafiy tizimida mavjudotlarni tabiiy belgilariga koʻra tahlil qilib, olamni oltita mavjudot turiga ajratgan<sup>3</sup>. Farobiy fikricha, inson aql-idrok sohibi boʻlsa, hayvonlar, jumladan otlar, tabiiy instinkt va sezgi orqali

1 Azizov A. Ўзбек халқининг ҳайвонот оламига оид қарашлари. – Т.: «Фан» нашриёти, 2024. – Б. 16-18.

2 Hasanboyev T.F., Burxonova E.F. Fargʻonaning “samoviy otlari” // Yangi Oʻzbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni oʻrni va rivojlanish omillari, 13(2). – B. 30.

3 Ўзбекистонда ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихидан лавҳалар. – Т.: “Ўзбекистон”, 1995. – Б. 43.

harakat qiluvchi, lekin tafakkur qobiliyatiga ega bo'lmagan mavjudotlardir<sup>4</sup>. Ushbu tasnif keyingi davr olimlari tomonidan hayvonot dunyosining aql, fe'l-atvor, morfologik belgilar va ijtimoiy funksiyalar asosida tiplarga bo'linishiga ilmiy zamin yaratdi.

Farobiyning bu nazariy yondashuvini Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino va Mahmud Qoshg'ariy o'z asarlarida davom ettirganlar. Ayniqsa, Ibn Sino hayvonlarning fiziologik tuzilishi va psixik sezgirligi haqida ilmiy ma'lumotlar beradi, Beruniy esa ularning geografik moslashuvchanligi, yashash joyi va iqlimga qarab turlarini farqlaydi. Qoshg'ariy esa “Devonu lug'otit-turk” asarida turkiy xalqlar orasida otlarning turlari, ularning nomlanishi, ranglari va ishlatilish maqsadlariga oid etnologistik ma'lumotlarni keltiradi. Bu ma'lumotlar o'rta asrlardagi ot turlarining lingvistik-tipologik manbai sifatida muhimdir<sup>5</sup>.

XIX asrda shakllangan evolyutsionizm va etnologik tipologiya maktablari otlarning kelib chiqishi, xulqiy xususiyatlari va marosimiy o'rni o'rganishda yangi ilmiy metodologiyalarni tatbiq etdi. Shotland olimi Jon Mak-Lennan tomonidan ishlab chiqilgan totemizm nazariyasi hayvonlarning, xususan otlarning, qadimiy diniy dunyoqarashdagi ramziy o'rni tahlil qilish imkonini berdi<sup>6</sup>. Unga ko'ra, qadimgi jamiyatlarda ayrim hayvonlar — shu jumladan, otlar — urug', qabila yoki ma'budning timsoli sifatida e'zozlangan va ular totem sifatida ijtimoiy ramzga aylangan.

Markaziy Osiyo xalqlarining ot haqidagi qarashlari va tasniflari B. X. Karmishevaning etnografik tadqiqotlarida alohida o'rin tutadi<sup>7</sup>. Olimaning fikricha, ot laqay va o'zbek xalqlari orasida nafaqat xo'jalik vositasi, balki mardlik, sharaf, sadoqat va muqaddas kuch timsoli sifatida qadrlangan. Aholi orasida otlarning rangi, tana tuzilishi, xulqi, yugurish tezligi va ijtimoiy ramziyligiga qarab ularni tiplarga ajratish an'anasi shakllangan. Karmisheva bu tasniflarni xalqning empirik kuzatishlariga asoslangan tipologik tizim sifatida baholaydi<sup>8</sup>.

G'arbiy tadqiqotchilardan Debora Kantrel ot obrazining diniy-simvolik talqinlarini o'rgangan bo'lib, u yahudiylikdagi ot timsolini qudrat, g'alaba va ilohiy irodaning ramzi sifatida izohlaydi<sup>9</sup>. Bu yondashuv otning tipologik tasnifida faqat morfologik emas, balki metafizik va ruhiy jihatlarni ham inobatga olish zarurligini ko'rsatadi.

K. Villekes esa otlarning amaliy san'atda tasvirlanishi, marosimiy qo'llanilishi va naslchilik faoliyatidagi

tarixiy o'rni o'rgangan. U Poni, Prjevalskiy, Axaltekin, Iber, Kaspiy kabi ot zotlarining morfologik belgilarini solishtirib, ularni geografik-tipologik asosda tasniflagan<sup>10</sup>. Villekesning qarashlariga ko'ra, qadimiy xalqlar ot inson va iloh o'rtasidagi vositachi mavjudot sifatida e'tirof etganlar, bu esa otning ruhiy-tipologik jihatlarini o'rganish uchun muhim manba hisoblanadi.

Zardushtiylik diniy tizimida ham ot obrazining tipologik o'rni ramziy ma'noga ega bo'lgan. “Avesto”ning “Yasht” qismida oq rangli ot kuch va poklik timsoli sifatida talqin qilinadi. Varaxrang oq ot ko'rinishida<sup>11</sup>, Tishtr esa oq ot yoki buqa shaklida tasvirlanadi<sup>12</sup>. Bu tasvirlar otning kosmogonik va diniy tipologiyadagi o'rni belgilaydi.

Shu tariqa, tarixiy manbalar, diniy matnlar va etnografik tadqiqotlar otlarning tipologiyasini nafaqat biologik yoki morfologik belgilar, balki ramziy, ijtimoiy va ruhiy funksiyalar asosida ham o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Bu esa otshunoslikning zamonaviy ilmiy ko'rinishida ko'p qatlamli tipologik tahlil modelini shakllantiradi.

O'rta Osiyo xalqlari orasida ot nafaqat iqtisodiy va harbiy ahamiyatga ega bo'lgan, balki u axloqiy, estetik va ijtimoiy ramz sifatida ham qadrlangan. Ot zotlari va ularning tashqi belgilariga, ayniqsa ranglariga oid qarashlar ko'plab adabiy va didaktik manbalarda o'z ifodasini topgan. Shunday manbalardan biri — XI asrda yozilgan Kaykovus qalamiga mansub “Qobusnoma”<sup>13</sup> asaridir.

Mazkur asarda muallif otlarning ranglariga ko'ra ularning tabiati, chidamliligi va fazilatlarini tahlil qiladi. Unga ko'ra, to'riq (ya'ni jigarrang) va xurmo rang otlar eng afzal zotlar sirasiga kiradi. Kaykovusning ta'kidlashicha, bu rangdagi otlar sovuq va issiq iqlim sharoitlariga birdek moslasha oladi, uzoq masofalarga bardosh bera oluvchi chidamli zotlar hisoblanadi. Shunga qaramay, xurmo rang otlar orasida ba'zilar nisbatan zaif bo'lishi mumkin, biroq agar ularning tuyog'i, lab osti, manglayi va dum qismi qora bo'lsa, bunday otlar “ko'p yaxshi” deb baholana- di<sup>14</sup>.

Shuningdek, saman otlar (sariq-qizg'ish tUSDagi otlar) ham eng yaxshi zotlardan biri sifatida tilga olinadi. Kaykovus bu rangdagi otning go'shti, sonlarining orasi va ko'z atroflari qoramtir bo'lishini chidamlilik va go'zallik belgisi deb biladi. Aksincha, bo'z rang otlar yaxshi zotlar sirasiga kamdan-kam kiradi, ko'k rangli otlar esa muallif tomonidan “badfe'l” — ya'ni injiq va qo'pol tabi'atli sifatida tavsiflanadi.

4 Азизов А. Ўзбек халқининг ҳайвонот оламига оид қарашлари. – Т.: «Фан» нашриёти, 2024. – Б. 15.

5 Азизов А. Ўзбек халқининг ҳайвонот оламига оид қарашлари. – Т.: «Фан» нашриёти, 2024. – Б. 16-18.

6 McLennan. The Worship of Animals and Plants // Fortnightly Review. 1869. № 4. – P. 407-427.

7 Кармышева Б.Х. Этнографические очерки узбекского сельского население. – Москва: Наука, 1969. – С. 290.

8 Кармышева Б.Х. Узбеки-локайцы Южного Таджикистана. Вып. 1. Историко-этнографический очерк животноводства в дореволюционный период [Текст]. – Сталинабад: Изд-во Акад. наук Тадж. ССР, 1954 [вып. дан. 1955]. – С. 80-114.; Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории Южных районов Таджикистана и Узбекистана. – Москва: Наука, 1976. – С. 173.

9 Cantrell D. “Some Trust in Horses”: Horses as Symbols of Power in Rhetoric and Reality // Warfare, Ritual, and Symbol in Biblical and Modern Contexts. Society of Biblical Literature. – Atlanta: 2014. – P. 136.

10 Willekes C. From the Steppe to the Stable: Horses and Horsemanship in the Ancient World: diss.... PhD. from anthropology University of Calgary. – Alberta: 2013. – 366 p.

11 Авесто: Яшт китоби / М. Исҳоқов таржимаси. – Т.: «Шарқ», 2001. – Б. 96-100.

12 Авесто: Яшт китоби / М. Исҳоқов таржимаси. – Т.: «Шарқ», 2001. – Б. 74.

13 Кайковус. Қобуснома. / Форсчадан М. Ризо Оғаҳий тарж. / – 2- тўлдирилган нашри. – Т.: Истиклол, 1994. – Б. 81-84.

14 Кайковус. Қобуснома. / Форсчадан М. Ризо Оғаҳий тарж. / – 2- тўлдирилган нашри. – Т.: Истиклол, 1994. – Б. 81.

Asarda bura (qo'ng'ir) rangdagi otlar ham yomon xususiyatli deb hisoblanadi. Bundan tashqari, muallif ot tanlashda otning bo'yi va kishining mavqeiga mosligini ham muhim deb biladi: agar kishining qaddi-qomati salobatli bo'lsa, u kichik bo'lyi ot minmasligi kerak, chunki bu uning ijtimoiy qiyofasini past ko'rsatadi.

Kaykovusning ushbu tasnifi o'sha davrda otning faqat jismoniy kuch va chidamlilik timsoli emas, balki shaxsiy qadr-qimmat, ijtimoiy maqom va estetik qadriyat bilan bog'langan ramz sifatida qaralganini ko'rsatadi. Bu fikrlar o'rta asrlardagi ot haqidagi xalq qarashlari, ranglarning ramziy ma'nosi hamda ot zotlarini baholash mezonlari haqida muhim etnografik va madaniy manba sifatida ilmiy ahamiyatga ega.

Tarixiy manbalarda otlarning tasnifi nafaqat ularning nasl yoki zotiga, balki tashqi morfologik xususiyatlariga, rang tusi, ko'z tuzilishi, oyoq morfologiyasi, tana proporsiyasi hamda xulqiy belgilariga ko'ra amalga oshirilgan. Qadimiy asarlarda, xususan, Sharq baytarlik an'analari otlar rang, ko'z rangi, oyoq tuzilishi va tana nisbatlari asosida yaxshilik yoki "shumlik" alomatlariga ko'ra baholangan.

Manbalarda qayd etilishicha, gulgun tusli otlar (ya'ni, bir xil rangdagi, ablaq belgisiz otlar) fazilatli zot hisoblangan. Adham otlar (tim qora tusli) ham maqtalgan, biroq ularning ko'zlari qizil bo'lsa, bunday belgilar hayvonning "asabiy" yoki "tinchliksiz" holatini bildiruvchi sifat sifatida talqin etilgan. Xuddi shuningdek, otning ko'z atrofi yoki tuyog'ining oq bo'lishi yomon belgilar sirasiga kiritilgan, bu esa otning "badxulq" yoki boshqaruvga yomon bo'lishi bilan izohlangan<sup>1</sup>.

Manbalarda ko'k tusli otlar orasida ikki ko'zi ham ko'k bo'lganlari maqtalgan, ammo bir ko'zi (ayniqsa chap ko'zi) ko'k bo'lgan otlar yomon alomat deb hisoblangan. Qaro (murg'ab) yoki qarg'a ko'zli otlar esa "yugurishda sust, harakatsiz" zotlar qatoriga kiritilgan.

Oyoq morfologiyasiga e'tibor qaratilgan ta'riflarda kulrang otlarning oyoqlari oq bo'lsa, bu yaxshi belgisi deb qaralgan, ammo faqat chap oyoqning oq bo'lishi "shumlik" belgisi sifatida baholangan. Ahvar otlar – oyoqlari qiyshiq bo'lgan otlar – "kamon poy" deb atalgan va yiqilishga moyil deb tavsiflangan. Asdaf yoki Axnaf otlar kichik tuyog'li, suyak tuzilmasi zaif bo'lgan otlar sifatida yomon baholangan. Shuningdek, Afraq, Afhaj va Asbaq otlar suyak bo'g'imlarida nuqson yoki shish borligi sababli "cho'loq, sustharakat" zotlar deb yozilgan.

Eng mukammal ot tasviri "aston baytara" deb ataluvchi ideal morfologik tipda ifodalangan: tishlari oq va silliq, burni keng, peshonasi ochiq, bo'yni to'g'ri va yo'g'on, siynasi keng, oyoqlari proporsional, quyrug'i uzun va qattiq, kipriklari qora bo'lgan otlar "ko'rkam va yugurak" sifatida ta'riflangan. Ularning tana tuzilishi barqarorlik, chidamlilik va yengil yugurish uchun qulay deb topilgan.

Qadimiy baytarlar, shuningdek, otning chap qo-

vurg'alari soni o'ng qovurg'asidan ortiq bo'lsa, bunday otlarning yugurishdagi barqarorligi va muvozanati yuqori bo'lishini ta'kidlaganlar. Bu arxeozoologik kuzatish zamonaviy morfologik tahlil nuqtai nazaridan ham o'zini oqlaydi: simmetrik skeletga ega otlarning yugurish ritmi muvozanatli bo'ladi.

E'tiqodiy tasnifda esa otning quyrug'i egri (a'zal ot), tik mo'ylovli (qoyig' ot), qo'ltig'ida tik jun bo'lgan (maqxu' ot) zotlari "shum" belgili deb talqin etilgan. Bunday tavsiflar zoologik emas, balki ko'proq xalq e'tiqodlari va qadimiy tabiatshunoslik qarashlari bilan bog'liqdir.

Shuningdek, shams otlar ("ko'p kishnovchi va tishlaydigan"), zarrot otlar ("tepushga moyil") kabi tiplarda xulqiy kuzatuv asosida baholash an'analari mavjud bo'lgan.

Markaziy Osiyoda ot zotlarini tipologik jihatdan tasniflash masalasi ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lib, bu borada tarixchi olim O'. Mavlonovning qarashlari alohida e'tiborga loyiqdir. U otlarni jismoniy imkoniyatlari, morfologik tuzilishi va foydalanish maqsadlariga qarab uch asosiy turga ajratadi:

Salt miniladigan otlar – Axaltaka, Yovmut kabi zotlar;

Ko'p maqsadli yo'rg'a ot zotlari – Laqay, Qorabayir, Qirg'iz, Don zotlari;

Og'ir yuk tashuvchi otlar – asosan yuk tashish va aravaga qo'shish uchun mo'ljallangan zotlar<sup>2</sup>.

A. Tashbayev<sup>3</sup> ham ushbu tipologik yondashuvni qo'llab, otlarning gavda tuzilishi, fiziologik moslashuvi hamda ixtisoslashganligiga asoslangan tasnifni ilgari suradi.

O'. Mavlonov o'z tadqiqotlarida har bir ot turining geografik kelib chiqishi, iqlimiy sharoitga moslashuvi, tezligi va chidamliligini atroflicha tahlil qiladi. Xususan, Axaltaka ot zoti Janubiy Turkmanistondagi Axaltaka vohasida yashovchi Taka turkmanlari tomonidan shakllantirilgan bo'lib, u cho'l iqlimiga moslashgan, yuqori tezlik va harakatchanlikka ega zot sifatida ta'riflanadi. Tadqiqotlarda bu zotning 1 km masofani 1 daqiqa 05 soniyada bosib o'tish qobiliyati qayd etilgan.

Yovmut oti esa salt miniladigan jaydari zot bo'lib, u turkmanlarning Yovmut qabilasi tomonidan yetishtirilgan. Genetik jihatdan unda Arab, Mo'g'ul, Qozoq va Axaltaka zotlarining ta'siri mavjud. Ushbu zotning afzalligi – issiq va quruq iqlimga yuqori darajada moslashuvi va chopqirliigidir.

Laqay ot zoti o'zbeklarning Laqay urug'i tomonidan 300–400 yil avval mo'g'ul tipidagi jaydari otlarni Yovmut, Axaltaka, Qorabayir va Arab ot zotlari bilan chatishtirish orqali yaratilgan. Mazkur zotning asosiy xususiyatlari – tog'li hududlarda harakatlanish qobiliyati, yuk tashish imkoniyati va issiq iqlimga moslashuvchanligidir.

Arab ot zoti esa Arabiston yarim orolida qadimdan shakllangan salt miniladigan zot bo'lib, u o'rta asrlarda

1 Кайковус. Қобуснома. / Форечадан М. Ризо Огаҳий тарж /. – 2- тўлдирилган нашри. – Т.: Истиклол, 1994. – Б. 81-82.

2 Мавлонов Ў.М. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари: шаклланиши ва ривожланиш босқичлари. Монография. – Т.: Академия, 2008. – Б. 261.

3 Tashbayev A. Ulov vositalaridan biri otlarning buyuk ipak yo'li rivojidadagi o'rni. // International Journal of Scientific and Applied Research, 1(2). 2024. – B. 186.

Turkman, Eron va Misr sahro otlari bilan chatishtirilgan. Ushbu zot suvsizlikka chidamli, cho'l sharoitida uzoq masofani charchamasdan bosib o'tish imkoniyatiga ega bo'lganligi bilan ajralib turadi. Ma'lumotlarga ko'ra, Arab otlari 1 km masofani 1 daqiqa 8 soniyada bosib o'tgan<sup>4</sup>.

Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Amir Temur davrida 120–160 chaqirim masofani dam olmasdan bosib o'tuvchi turkman otlari mavjud bo'lgan. U bu zotlarni yanada mustahkamlash maqsadida Arab otlari bilan chatishtirib, natijada suvsizlik va jazirama issiqlikka bardoshli yangi zotlarni yaratgan. Ushbu zotlar Temuriylar saltanatining harbiy yurishlarida strategik ustunlik bergan<sup>5</sup>.

Turkiy xalqlarning qadimiy dunyoqarashida ot nafaqat iqtisodiy va harbiy hayotda, balki diniy-mifologik tizimda ham markaziy o'rin egallagan mavjudot sifatida qadrlangan. Turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan e'tiqodlardan biri — ilohiy qurbonlik uchun bag'ishlangan otlarga oid bo'lgan. Bu toifaga mansub otlar maxsus tanlab olingan, ularning rangi, yoshi va xulqi marosimiy ma'nolar bilan bog'langan. Odatda, oq tusli otlar osmon va yorug'lik ilohlariga bag'ishlangan bo'lsa, qora tusli otlar yer osti va zulmat ilohlariga qurbon qilingan. Qurbonlik marosimida otning go'shti iste'mol qilinadi, teri esa marosim daraxtiga yoki "qurbonlik yog'ochi"ga osib qo'yiladi. Bu amaliyot diniy tizimda otning ilohiy vositachilik rolini ifodalagan.

Turkiy xalqlarda ot e'tiqodi dualistik dunyoqarash bilan ham chambarchas bog'langan. Oq ot – yorug'lik, hayot, quyosh ramzi sifatida talqin qilinsa, qora ot – zulmat, tun va o'lim ramzi sifatida qaralgan. Bu ramziy qarashlar tabiat va olam muvozanati haqidagi falsafiy tushunchalarni aks ettirgan. Firdavsiy "Shohnoma" asarida oq va qora otlarning bir-birini quvib yetolmasligi tasviri kun va tunning abadiy almashinuvi, hayot siklining davomiylik sifatida talqin etiladi.

Turkiston xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida otlar muhim o'rin tutgan bo'lib, ularning zot tarkibi, tipologik farqlanishi hamda harbiy va xo'jalik tizimlaridagi o'rni tarixiy manbalarda, xususan "Turkiston to'plami" materiallarida keng yoritilgan. Mazkur to'plamda keltirilgan ma'lumotlar o'sha davrda O'rta Osiyoda xalq seleksionerlari tomonidan shakllantirilgan ot zotlari, ularning morfologik va funksional belgilarini o'rganish uchun muhim manba hisoblanadi.

"Turkiston to'plami"dagi otlarga oid yozuvlar, asosan, mahalliy ot turlarining tipologik xususiyatlari — ularning bardoshlilik, moslashuvchanligi, tez chopish qobiliyati, hamda iqlimga nisbatan chidamliligi bilan ajralib turishini ko'rsatadi. Ayniqsa, O'rta Osiyo otlarining ingliz, don, venger singari yevropalik zotlardan morfologik jihatdan farqli o'ringa egaligi qayd etiladi. Bu farqlar, asosan, otlarning konstitutsion tuzilishi, mushak massasi, oyoq uzunligi, yurish tipi va energiya sarfi bilan bog'liq bo'lib,

bu belgilar ularni dasht sharoitiga moslashgan tip sifatida ajratib turadi.

425-tomda E.U. imzosi bilan chop etilgan maqolada ham bu tipologik jihatlar aniq ko'rsatib o'tilgan. Muallif fikricha, imperiya armiyasining kavaleriya qismlarini qimmat ingliz otlari bilan emas, balki Qirg'iz (Qozoq) tipidagi otlar bilan ta'minlash iqtisodiy jihatdan samaraliroq bo'lgan. Bu otlar o'zining energiya tejoychanligi, uzoq masofalarda chidamliligi, minimal oziqa bilan faol harakatlana olish xususiyati bilan ajralib turgan. Maqolada keltirilgan statistik ma'lumotlarga ko'ra, Rossiya imperiyasining Qirg'iz dashtlarida kavaleriya uchun yaroqli 4 milliondan ortiq ot mavjud bo'lib, bu raqam O'rta Osiyo ot zoti tipologiyasining harbiy-amaliy jihatdan strategik ahamiyatini ko'rsatadi<sup>6</sup>.

"Turkiston to'plami"da, shuningdek, ot poygalari haqida ma'lumotlar ham keltirilgan bo'lib, ular O'rta Osiyo otlarining tezlik tipiga mansubligini tasdiqlaydi. Masalan, 20–23 vvorst masofadagi poygalarda ingliz zotli ot 40 daqiqa 95 soniya natija ko'rsatgan bo'lsa, Qirg'iz oti 36 daqiqa 30 soniyada masofani bosib o'tgan<sup>7</sup>. Bu esa, O'rta Osiyo otlarining tezlik va chidamlilik kombinatsiyasiga asoslangan aralash tip ekanligini ko'rsatadi.

## XULOSA.

O'rta Osiyo xalqlarining tarixiy-madaniy taraqqiyotida ot nafaqat transport vositasi yoki harbiy kuch manbai, balki ijtimoiy mavqe, marosim va e'tiqod ramzi sifatida ham muhim o'rin tutgan. Tarixiy manbalar, xususan, "Qobusnoma", "Avesto", "Shohnoma" va "Turkiston to'plami"da otlarning turlari, ranglari, jismoniy xususiyatlari va ijtimoiy vazifalari haqida keng ma'lumotlar uchraydi. Ushbu ma'lumotlar asosida o'sha davrda shakllangan otlarning tipologiyasi — salt miniladigan, yo'rg'a va yuk tashuvchi zotlar sifatida aniqlanadi.

Bundan tashqari, otga nisbatan shakllangan totemistik qarashlar, svastikasimon tamg'alar, oq va qora ot ramzlari orqali ifodalangan dualistik e'tiqodlar ham o'lkadagi hayvonot olami va inson tafakkuri o'rtasidagi chuqur bog'liqlikni namoyon etadi.

Shunday qilib, O'rta Osiyodagi qadimiy ot turlarini o'rganish — nafaqat zoologik yoki iqtisodiy, balki madaniy va falsafiy jihatdan ham beqiyos ahamiyat kasb etadi. Bu esa mintaqa sivilizatsiyasi shakllanishida otning tutgan o'rni va tarixiy tipologiyasini yanada chuqurroq tadqiq etish zaruratini ko'rsatadi.

4 Мавлонов Ў.М. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари: шаклланиши ва ривожланиш босқичлари. Монография. – Т.: Академија, 2008. – Б. 260.

5 Kenjayev S.N., Rahmatov M.A. Amir Temur va Temuriylar davri flora-faunasi. / [Matn]: Risola. – Buxoro: "Buxoro Determinanti" MCHJ ning Kamolot nashriyoti, 2023. – B. 21.; Uljaeva Sh. Amir Temur davlat boshqaruvi [Matn] / Sh. Uljaeva. – Toshkent: Akademnashr, 2017. – B. 105.

6 Киргизская лошадь. Туркестанский сборник. Т. 425. – С. 5-7.

7 Заметки о Киргизской лошади. Туркестанский сборник. Т. 425. – С. 8-13.